



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



yozib, o'zi ham qo'shimcha topshiriq yozib, pochta qutisi orqali qayta savol egasiga jo'natiladi. Uyga topshiriq sifatida masalan, adiblar maktublarini internet manbalari yoki kitoblar orqali topib kelish, tahlil qilish va o'zlari ham o'sha ijodkoriga maktub yozish vazifa shaklida beriladi. Ushbu metod orqali epistolyar janrni o'quvchilar qanchalik darajada o'zlashtirganliklari tekshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 83-b
2. .I. G'ofurov. Dil erkinligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 78-b.
3. M.Qo'chqorova. Maktublar – qalb ko'zgusi // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2009. – № 11. – B. ...
4. R.Ibrohimova. Epistolyar janr eskirdimi?/O'zbek adabiyoti va san'ati. 2007,10-son
5. .Z.Saidnosirova. «Ойбегим менинг». «Янги аср авлоди», Ташкент –2022 йил,

## **6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINF DAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR**

**Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
 O'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti*  
*dlafruz444@gmail.com*

#### **Annotatsiya**

Umumiy o'rta ta'lif maktablari adabiyot fani o'quv mashg'ulotlarining muhim mavzularidan biri sinfdan tashqari o'qish masalasi hisoblanadi. Bu mavzuga tegishli darslarning mazmunli hamda samarali o'tishi adabiyot o'qituvchisining mahoratiga bog'liq. Ushbu maqolada 6-sinf adabiyot darslarida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish uchun badiiy asarlar nomlari keltirilgan, ularning qisqacha mazmuni berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, sinfdan tashqari o'qish, o'quv mashg'uloti, "Mutolaa", badiiy asar, kitobxon, kutubxona

#### **Аннотация**

Одной из важных тем на уроках литературы в общеобразовательных школах является тема внеклассного чтения. Содержательная и эффективная подача уроков по этой теме зависит от мастерства учителя литературы. В статье даются рекомендации по проведению внеклассных занятий по чтению на уроках литературы в 6-м классе. Также перечислены названия произведений искусства для внеклассного чтения и их краткое содержание.

**Ключевые слова:** литература, внеклассное чтение, образовательная деятельность, «Мутолаа», художественное произведение, читатель, библиотека.

#### **Annotation**

One of the important topics in literature lessons in secondary schools is the topic of extracurricular reading. Meaningful and effective presentation of lessons on this topic depends on the skill of the literature teacher. The article provides recommendations for conducting extracurricular reading classes in literature lessons in the 6th grade. The names of the works of art for extracurricular reading and their summary are also listed.



**Keywords:** literature, extracurricular reading, educational activities, "Mutolaa", artwork, reader, library.

Milliy adabiyotimiz juda qadim tarixga ega. Hamda u asrlar osha kitobxonlarni hayratga solgan holda yashab, yashnab, rivojlanib kelmoqda. Uning go'zalligi, hayotimizdagi o'rni, biz uchun ahamiyati haqida ko'plab fikrlar bildirilgan. Nazarimizda, ularning eng ta'sirlisi – betakror shoir va adib, qatag'on qurboni Abdulhamid Cho'lponning e'tirofi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirk'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir". [7: 37]

Ma'lumki, kitob mutolaasi adabiyot darslarining ajralmas qismi hisoblanadi. Badiiy asar mutolaasi bolani vatanparvar, oilaparvar, mehribon inson bo'lib yetishishida muhim o'rinni tutadi.

Umumiyligi o'rta ta'lim maktablari o'quv rejasiga ko'ra, deyarli har bir chorak oxirida sinfdan tashqari o'qilgan badiiy asarlar yuzasidan suhbat darslari bo'lib o'tishi kerak. Ammo, ko'p hollarda bunday o'quv mashg'ulotlari zerikarli o'tishi mumkin. Chunki kitobxon o'quvchilar soni o'rta maktablarda u qadar ko'p emas. Prezident maktablari va ixtisoslashgan maktablarning o'quvchilari bundan mustasno, albatta.

Xo'sh, uyida shaxsiy kutubxonasi mavjud bo'lgan o'quvchilar sonini ko'paytirish uchun, sinfdan tashqari o'qishga :r o'quv mashg'ulotlarini qiziqarli tarzda o'tkazish uchun qanday yo'l tutishimiz kerak?

Avvalambor, adabiyot fani o'qituvchisining o'zi kitobxonlikning faol targ'ibotchisi bo'lishi lozim. Zero, "O'zbekiston qahramoni" Ozod Sharafuddinov adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi kitobxon yetishtirish ekanligini alohida ta'kidlagani beziz emas. O'quv yili davomida o'qituvchi adabiyot fanidan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarida mazkur sinf o'quvchilarining yoshiga mos bo'lgan badiiy adabiyot namunalaridan parchalar o'qib yoki so'zlab berishi, o'quvchilarga biron asarni mutolaa qilishni uyga vazifa sifatida berib yuborishi ma'qul tadbirlardan biridir. Biz o'z maqolamizga obyekt sifatida 6-sinf adabiyot darslarini olganimiz uchun, tabiiyki, shu yoshdagi o'quvchilarga mos bo'lgan badiiy adabiyot namunalarini misol tariqasida tavsiya qilamiz:



## O'zbek adabiyoti namunaları

### Tavsiya

Oybek "Bola Alisher"

Abdulla Qahhor "O'tmishdan ertaklar"

O'lmas Umarbekov "Qizimga maktublar"

Xudoyberdi To'xtaboyev "Jannati odamlar"

Farhod Musajonov "Bir qultum buloq suvi"

Shukur Xolmirzayev "Olma yemadim"

Sa'dulla Qur'onov "Galaktikada bir kun"  
Bolalar ensiklopediyasi

### Izoh

Mashhur shaxslarning hayot yo'li bolalar uchun har :m qiziqarli bo'lgan. Qissada Alisher Navoiyning bolaligi chuqur mehr bilan tasvirlangan.

Adibning bolaligi o'z tilidan hikoya qilingan. Og'ir va mashaqqatli hayot tarzi jonli tasvirlangan.

Yozuvchining bu asari biografik xarakterga ega bo'lib, oilaning muqaddasligi, oila a'zolari o'rtaсидагиилиq munosabatlar, ahillik, mehr-oqibat haqida so'z boradi.

Ushbu roman muallifning og'ir kechgan bolaligi haqida hikoya qiladi, barcha bolalar uchun ham qiziq bo'ladi. Asar qahramoni o'quvchilar bilan deyarli tengdosh bo'lgani uchun yaxshi qabul qilishadi.

Qissada o'smir yigitning boshidan kechirganlari hikoya qilinadi. Ota-onadan erta yetim qolib, buvisining qo'lida tarbiyalanayotgan bola hayotiy muammolarini mustaqil hal qilishga harakat qiladi.

Hikoyada birovning qarovsiz bog'idan olma tergan yigitlar va buni o'g'rilik deb hisoblagan sheriklari bilan bo'lgan nizoli vaziyat haqida so'z boradi. Asar qahramonlari 6-sinf o'quvchilar bilan tengdosh bo'lishgani sababli, bolalar hikoyani yaxshi qabul qilishadi.

Bu asar ilmiy-fantastik qissa bo'lib, uning tarkibidagi maqolalarda ilmiy ma'lumotlar badiiy uslubda berilgan.

Bugungi kunda bolalar uchun nashr etilayotgan ensiklopediyalar

### Eslatma

Adabiyot darslarida o'qituvchi asardan parcha o'qib bersa, bolalar to'liq shaklda mutolaa qilar edilar.

O'quvchilar bugungi farovon hayot uchun shukrona keltirish, Vatan uchun fidoyi inson bo'lishga intilish kabi tuyg'ularni boshdan kechiradilar. Asardan parchalarni sahnalaشتirish ham yaxshi natija beradi.

O'quvchilar bilan ularning oilasidagi keksalarning nasihatları, ulardan olingan saboqlar, qilgan xatoliklariga kattalardan eshitgan tanbehlari haqida hikoya qilib berish vazifasi berilsa, bolalar asarning naqadar hayotiyligini his etishadi.

O'quvchilarga asar qahramonlariga ta'rif berish yoki ulardan biriga maktub yozish vazifasi yuklatilsa, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanishiga xizmat qilgan bo'lardi.

Agar o'quvchilar bilan o'smir bolalarning oila a'zolari bilan munosabati - muammo va yechimlar haqida suhbat uyushtirilsa, ularga o'qituvchi turli badiiy asarlardan va hayotiy voqealardan misol keltirgan holda maslahatlar bersa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Hikoyadagi har bir qahramon haqida o'quvchilarning fikrlari so'ralsa, bolalarning mustaqil fikrlashi yaxshi shakllangan bo'lardi.

O'quvchilardan koinot haqidagi o'zlashtirgan ma'lumotlarini so'ralsa, bilimlari mustahkamlanadi.

O'quvchilarga o'zlari qiziqqan sohaga oid ma'lumot yig'ib kelish vazifasini



juda ko'p, turli tavsiyalar berish berish mumkin.  
mumkin.

### Jahon adabiyoti namunalari

Tavsiya	Izoh	Eslatma
Aziz Nesin "G'aroyib bolalar"	Bu asar ikki sinfdoshning bir-biriga yozgan maktublaridan tashkil topgan. Maktabda va uyda sodir bo'lgan qiziqarli voqealar bayoni o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi shubhasiz. Ahmad Tarbay va Zaynab Yolqir bolalarning sevimli do'stiga aylanib qoladi.	O'quvchilarga do'stiga maktub yozish topshirig'I berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda bolalarning nutqi, ijodkorligi ortardi, xotirasi ham rivojlanardi.
Jek London "Oq so'yloq"	Mashhur yozuvchining qissasi orqali bolalar tabiat bilan yaqinlashadilar, hayvonot olamiga bo'lgan muhabbatlari ortadi.	O'quvchilar bilan o'zlari parvarish qilayotgan uy hayvonlari va ularning fe'l-atvori haqida suhbatlar o'tkazish mumkin.
Astrid Lindgrin "Mittivoy va Karlson" G'afur G'ulom, 1988. – 226b.	Bu asar ham 5-sinf o'quvchilari uchun juda mos. Ular qiziqib o'qib chiqishadi.	O'quv mashg'uloti vaqtida shu asar asosida ishlangan multfilmdan parcha ham ko'rsatish mumkin.
Aleksandr Pushkin ertaklari	"Baliqchi va baliq haqida ertak", "Shoh Sulton haqida ertak", "Pop va uning xizmatkori Balda haqidagi ertak" kabilarni bolalar qiziqib o'qishadi.	O'quvchilar ishtirokida bu ertaklar asosida sahna ko'rinishlari tashkil etilsa, asarni qabul qilish jarayoni faollashadi.
Vsevolod Nestayko "Robinzon Kukuruzoning sarguzashtlari"	Ukrain yozuvchisining ushbu qissasida mashhur sayyoh Robinzon Kruzoga havas qilgan bola – Pavlusha Zagorodniyning sarguzashtlari aks etgan. Ushbu asar 6-sinf o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otadi.	Bu qissadagi voqealar mazmuni bilan Robinzon Kruzoning sarguzashtlarini qiyoslab, o'quvchilar o'rtasida bahsmunozaralar, suhbatlar uyushtirish mumkin.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanib ketgan. O'quvchilar ham bu borada kattalardan qolishmaydilar. Deyarli har bir o'quvchining qo'lida zamonaviy rusumdag'i telefonlarni ko'rish mumkin. Ko'p xonodonlarda kompyuterlar va noutbuklar mavjud. Ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda, badiiy asarlarning elektron yoki audio shaklini mutolaa qilishni o'quvchilarga tavsiya etish mumkin. Hozirgi kunda kitoblarining android, ya'ni telefonda o'qish mumkin bo'lgan variantlari ham ommalashgan. Bolalar telefondagi foydasiz o'yinlar bilan band bo'lgandan ko'ra, badiiy kitob o'qigani ma'qulroq. Bundan tashqari, bugungi kunda joriy etilgan zamonaviy darsliklarda mustaqil o'qish uchun badiiy asarlarning audio varianti QR-codi bilan berilgan. Ushbu asarlarni mutolaa qilishni uyga vazifa sifatida berib, keyinchilik reja asosida muhokama



qilinsa, samarali bo'lardi. O'quvchilarning kitob mutolaasiga qiziqishlari ortar edi.

Ma'lumki, o'quvchilar mashhur insonlarga, ayniqsa, aktyorlarga havas qilishadi. Shuning uchun o'zlarini aktyor sifatida his qilish ular uchun qiziqarli bo'ladi. Mutolaa uchun tavsiya etiladigan dramatik asarlarni oldindan o'quvchilarga o'qitib, ulardan ta'sirli parchalarni sahnalashtirishni tavsiya qilamiz. Bu jarayon o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Uyg'un va Izzat Sultonning "Navoiy", O'lmas Umarbekovning "Kuzning birinchi kuni", Sharof Boshbekovning "Eski shahar gavroshlari" kabi dramatik asarlarini sahnalashtirish uchun tavsiya qilish mumkin.

O'quvchilarga mustaqil o'qish uchun badiiy asarlarni adabiyot fani o'qituvchisi tavsiya qilishi kerak. Asarlarni tanlashda o'quvchilarning yoshi, psixologiyasi, qiziqishlari, dunyoqarashi hisobga olinishi kerak. Bulardan tashqari, jamiyatda hamda ta'lim tizimida ro'y berayotgan yangilik va o'zgarishlar, zamонавији texnologiyalarning rivojlanishi, maktab hayotidagi muammolar va boshqa holarlarni ham e'tiborga olish zarur deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda bolalar kitobxonligi masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda hamda amaliy harakatlar ham ko'paygan. Jumladan, kitob mutolaasini osonlashtirish maqsadida androidlar uchun "Mutolaa" ilovasi ishga tushgan. Bu juda qulay va samarali loyiha hisoblanadi. Bolalarning istalgan joyda va vaqtida kitob o'qishlari uchun bu juda katta imkoniyatdir. Barcha o'quvchilarga ushbu ilovani taklif etish foydadan xoli bo'lmaydi deb o'ylaymiz.

6-sinf o'quvchilari bilan kutubxonalarga, kitob do'konlari va ko'rgazmalariga, muzeylarga sayohat uyuştirish ham samarali natija beradi. Respublika bolalar kutubxonasi, "Kitob olami" va "Sharq ziyokori" kabi kitob do'konlari, Adabiyot muzeyi va adiblarning uy-muzeylari(jumladan, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor) shular jumlasidan. Ushbu inshootlarda noan'anaviy tarzda o'quv mashg'ulotlari o'tkazilsa, o'quvchilarning yodida qoladigan tadbir bo'ladi. Misol uchun Adabiyot muzeyining Alisher Navoiy yoki Bobur zallarida mazkur adiblar ijodiga :r mashg'ulotlarni o'tkazish mumkin. Adiblarning uy-muzeylarida ham muzey xodimlari yoki adabiyot o'qituvchisi tomonidan uyuştirilgan suhbatlar bolalarning adabiyotga va kitob mutolaasiga qiziqishini shakllantiradi, rivojlanadir.

Yuqorida fikrlardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin:

1. Adabiyot fani o'qituvchisi o'quvchilarni adabiyot olamiga va kitob mutolaasiga oshno qiluvchi asosiy motivator qiyofasida muntazam faoliyatda bo'lishi lozim.

2. Adabiyot fanidan o'quv mashg'ulotlari vaqtida badiiy asarlardan parcha o'qib berish yoki mazmunini so'zlab berish o'quvchilarni kitob bilan yaqinlashishiga yordam beradi.

3. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarining maktab kutubxonasiga a'zoligi hamda kitob o'qishdagi faolligini o'quv yili davomida nazorat qilib borishi kerak.



4. Badiiy asarlar asosidagi sahna ko'rinishlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishini :m hisobga olgan holda turli spektakllardan parchalarni sahnalashtirish lozim.

5. Badiiy asar janri va uslubini tanlashda o'quvchilarni kerakli tomonga to'g'ri yo'naltirish va vaqtı-vaqtı bilan nazorat qilib turish zarur.

6. Ko'plab kitoblarni o'zida jamlagan ziyo.uz saytidan o'rinli va unumli foydalanish ko'nikmasini o'quvchilarda shakllantirib borish kerak.

7. Androidlar uchun moslangan ilova – "Mutolaa"ning ommalashishida adabiyot o'qituvchilari alohida jonbozlik ko'rsatishlari zarur.

8. Asosiysi, o'qituvchi an'anaviylikdan qochib, zamonaviylikka intilishi, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish borasida o'quvchilardan qolishmaslikka harakat qilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilinsa, biz umid qilamizki, o'quvchilarning badiiy asar mutolaasiga qiziqishlari ortadi. Sinfdan tashqari o'qish mavzusiga :r darslar ham qiziqarli va mazmunli tarzda o'tadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aleksandr Pushkin. Ertaklar. Toshkent: Sharq, 2004. – 112b.
2. Aziz Nesin. G'aroyib bolalar. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2020. – 208 b.
3. Jek London. Oq so'yloq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 160 b.
4. Астрид Линдгрин. Миттвой ва Карлсон. Тошкент: Ғафур Ғулом, 1988. – 226б.
5. Всеволод Нестайко. Робинзон Кукурузонинг саргузаштлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 168 б.
6. Худойберди Тўхтабоев. Жаннати одамлар. Тошкент: Чўлпон, 1995. – 272 б.
7. Чўлпон. Адабиёт надир. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 240 б.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/DASC8609

## **5-7-SINFLAR ADABİYOT DARSLARIÐA SHE'RİY ASARLARNİNG BADIÝÝ TİL XUSUSIYATLARINI ÖRGATIŞ METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA**

**Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti  
[meliyevanasiba1990@gmail.com](mailto:meliyevanasiba1990@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 5-7-sinflar adabiyot darsliklarida o'rgatiladigan she'riy asarlar — Mirtemirning "Shudring" va Anvar Obidjonning "Tinch kunlar" she'rlari badiiy til xususiyatlari, poetik san'at vositalari va obrazilik orqali tahlil qilinadi. She'rlar asosida poetik tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** badiiy til, she'riy san'at, poetik tasvir, metodika, epitet, metafora, tashbeh, obraz.

**Annotation:** This article analyzes the poetic works taught in literature textbooks for grades 5-7 - Mirtemir's "Shudring" and Anvar Obidjon's "Tinch kunlar" - through the features



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATİSH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

